

Qambarov Nodirbek Mamatqodirovich
Andijon davlat chet tillari instituti
Nemis tili nazariyasi va amaliyoti kafedrasida o'qituvchisi

**PSIXOLINGVISTIKA – INSON NUTQIY FAOLIYATINING PSIXOLOGIK VA
LINGVISTIK JIHLARINI O'RGANUVCHI FANDIR**

Annotatsiya: Psixolingvistika nutqning shakllanishi va uni idrok etish qonuniyatlari haqidagi fan bo'lib, u nutqni shakllantirish jarayonlarini, shuningdek, uni til tizimiga muvofiq ravishda idrok etish masalasini o'rganadi. Chunki psixik jarayonlar: sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol, nutq, diqqat kabilarning barchasi o'zga tilni o'rganishda, nutq shakllanishida asosiy faoliyat hisoblanadi. Shuning uchun psixolingvistika nafaqat so'zlarni tushunish, idrok etish, ona tilini o'rganilayotgan chet tilga ijobiy va salbiy ta'sirini o'rganadi, balki o'quvchining ruhiy olami, mashg'ulotlar jarayonida til o'rganishga qiziqishi, ko'nikmalar integratsiyasidagi qiyinchilaklari bilan ham shug'ullanadi.

Аннотация: Психоллингвистика – это наука о формировании речи и закономерностях ее восприятия, она изучает процессы формирования речи, а также вопрос ее восприятия в соответствии с системой языка. Потому что психические процессы: интуиция, восприятие, память, мышление, воображение, речь, внимание – все это основные виды деятельности при изучении иностранного языка и формировании речи. Поэтому психоллингвистика изучает не только понимание и восприятие слов, положительное и отрицательное влияние родного языка на изучаемый иностранный, но и занимается психическим миром учащегося, его интересом к изучению языка в процессе обучения, трудностями в обучении. интеграция навыков.

Abstract: Psycholinguistics is the science of the formation of speech and the patterns of its perception, it studies the processes of speech formation, as well as the issue of its perception in accordance with the language system. Because mental processes: intuition, perception, memory, thinking, imagination, speech, attention - all these are the main activities in the study of a foreign language and the formation of speech. Therefore, psycholinguistics studies not only the understanding and perception of words, the positive and negative influence of the native language on the foreign one being studied, but also deals with the mental world of the student, his interest in learning the language in the learning process, learning difficulties. skill integration.

Bugungi kunda jahon talablariga javob beradigan darajada til o'qitish masalasi davlat siyosatining ustuvor masalalaridan biriga aylandi. Bu sohani sifatli rivojlantirish maqsadida qabul qilingan chet til o'qitish bo'yicha qaror va farmonlar sifatli ta'lim berishga asos bo'ldi. Ta'lim jarayonini zamonaviy texnologiyalar bilan olib borish o'quvchining bilish jarayonidagi faolligini oshiradi, chet tilga nisbatan motivatsiya uyg'otadi. Til haqiqatan ham aloqa vositasi. Ammo uning yordamida o'quvchilar bir-birlari bilan o'zaro ruhiy jihatdan aloqaga ham kirishadilar, o'zaro axborot almashadilar, bir-birlariga ta'sir o'tkazadilar, har bir so'z va tushunchalarni his qiladilar, xulosa chiqaradilar. Qanday til bo'lishidan qat'iy nazar o'qituvchida pedagogik va psixologik ko'nikmalarning bo'lishi talab etiladi. Albatta, chet tilni o'qitish metodikasi uchun nutqni rivojlantirish va uning psixologik jarayonlarni bilish, o'rganish muhimdir. Natijaga erishish uchun esa inson psixologiyasiga e'tibor berish, uni pedagogika, lingvistika bilan qo'shaloq holda o'rganishni tashkil etish maqsadga erishishning birdan bir yo'li hisoblanadi. O'qitish qonuniyatlarining didaktik tamoyillarga asoslangan holda tashkil etish uchun, albatta, innovatsiyaga asoslanish zarur.

Psixolingvistika – inson nutqiy faoliyatining psixologik va lingvistik jihatlarini o‘rganuvchi fan bo‘lib u o‘quvchining tili va nutqini rivojlantiradi hamda o‘quvchining ruhiyati va dunyoqarashini umumlashtiradi, uni o‘rganishda beriladigan bilimlar o‘quvchilarni his qila olishiga, idrok eta olish, esda saqlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozimligini ko‘rsatdi. Nemis tilida beriladigan mavzularning xususiyatidan kelib chiqib, u o‘quvchining psixofiziologik va psixosotsiologik xususiyatlariga mos holda berilishi, shuningdek, ma‘lum faktlar, tushunchalar, qoidalar va uzluksizlikni hisobga olgan holda bilimlar tahlil qilinishi zarur. Nemis tilini o‘qitishda o‘quvchilarning ta‘limiy kompetentsiyani rivojlantirish o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash va motivatsiyaga asoslangan bilim berishiga bog‘liq.

Psixolingvistikaning tadqiq ob‘yektini nutqiy faoliyat jarayoni, nutq birliklari ekan, uni metodik jihatdan o‘rganishda biz ham nutqiy faoliyat jarayonini amalga oshirishni ob‘yekt qilib olamiz. Chunki til o‘qitishda axborotni tinglovchiga yetkazish, so‘zlovchi va uni qabul qiluvchining ruhiyati kabi masalalarni o‘rganish muhim hisoblanadi. A.A.Leontyev tomonidan berilgan eng zamonaviy ta‘rif turli nuqtai nazarlarni umumlashtira oladi: “Psixolingvistika predmeti, bir tomondan, shaxsning nutq faoliyati tizimi va funktsiyalari bilan aloqadorligi, boshqa tomondan esa, insoniyat olamining “shakllangan” tasviri bo‘lgan tildir”¹.

Nemis tilini o‘rganishda o‘quvchining psixologik rivojlanish qonuniyatlarini bilish va shu asosda bolalarni kuzatish; ta‘lim jarayonida psixologik-pedagogik metodlardan foydalanishning ahamiyati va imkoniyatlarini aniqlash asosiy vazifalarimizdan biri sifatida belgilanib, o‘quvchi nutqiy mexanizmlarini til tizimi bilan o‘zaro aloqadorligini o‘rganish vazifa sifatida tahlil etilgan.

Psixolingvistika nafaqat so‘zlarni tushunish, idrok etishni, ona tilining o‘rganilayotgan chet tilga ijobiy va salbiy ta‘sirini o‘rganadi, balki o‘quvchining ruhiy olami, mashg‘ulotlar jarayonida til o‘rganishga qiziqishi, ko‘nikmalar integratsiyasidagi qiyinchiliklar bilan ham shug‘ullanadi. Shuningdek, chet til o‘qitishni hayotiy lashtirish zarurligi, tilni puxta o‘rganish uchun kishining idroki, tildan muloqot vositasi sifatida foydalana olishi, o‘z milliy qadriyatlarini his qila olishi kabilar belgilangan. R.M.Frumkina ta‘kidlashicha, tilni ruhiy hodisa sifatida o‘rganilsa va o‘qitish jarayonida o‘qituvchi introspektsiyadan, ya‘ni o‘quvchi o‘z xatolarini tushinib yetishi va to‘g‘rilay olish qobiliyatiga ega bo‘lishi, aqliy moslashuvining shakllanishi samarali ekanligini anglatadi².

Har bir darsda o‘qituvchi psixologik jarayonlarning qismlarini ajratishi lozim bo‘ladi. Jumladan, berilgan matnning yoki so‘zning o‘ziga xos jihatlarini idrok etish, uning mazmunini anglab yetish, asardagi ta‘sirchan so‘zlarni xotirada saqlab qolish, asar matnidagi so‘zlar, iboralarning mazmuni ustida fikrlash, obrazlar, kechinmalarni his etish kabilarga e‘tibor qaratish lozim bo‘ladi. O‘quvchilar muloqot jarayonini amalga oshirishda (chet til o‘rganishda) so‘z, tushuncha, matnni idrok etishlari, hissiy kechinmalarini anglashlari, millat tuyg‘usi kabi jihatlar shakllanishiga erishish mumkin bo‘ladi, shuningdek, har ikki tildagi berilgan so‘zlarni o‘rganadi hamda ushbu jarayonda bir qancha yutuqqa erishiladi.

Ma‘lumki, o‘zbek xalqining o‘z ruhiy qiyofasi, milliy xususiyati, milliy xarakteri, milliy his-tuyg‘usi, mijozi (temperament), xulq - atvori, xulqi, didi, ta‘bi alohida ajralib turadi. O‘zbek

¹ А.А.Леонтьев. Основы психолингвистики / - М. : Смысл, 1997. - 287 с.

² Фрумкина Р.М. О специфике гипотез в психолингвистике. – В сб.: Гипотеза в современной лингвистике. М., 1980.

millatining bilish jarayonlari (sezgisi, idroki, tasavvuri, xotirasi, tafakkuri, xayoloti) qobiliyatining aniq yoʻnalishiga qaratilganligi, extiyoji va qiziqishi, milliy ongi oʻziga xos xususiyatlarga egadir. Shuning uchun ham nemis tili darslarida lugʻat ustida ishlashda har bir xalqning milliy urf-odatlarini va unda ishlatiladigan soʻzlarni qanday qoʻllash va undan foydalana olish yoʻllarini oʻrgatish maqsadga muvofiq boʻladi. Taʼlim jarayonida har ikki xalqning oʻziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, nutqda soʻzlarni qoʻllashga oʻrgatish zarur. Chunki psixolingvistikada soʻzlashish odoblari, soʻzlovchi va tinglovchining madaniylik, til bilish darajasi, his-tuygʻusi oʻz aksini topadi. Amaliy kuzatishlar shuni koʻrsatmoqdaki, oʻquvchilarning oʻzbek va nemis millatiga xos boʻlgan urf-odatlarini, milliy xususiyatlarini til orqali oʻrganiladi, ijodiy faoliyatlari rivojlanadi. Voqeʻlikni tasavvur va idrok eta olishlari turli yosh davrlarida turlicha namoyon boʻladi hamda oʻziga xos vazifalarni bajaradi. Oʻquvchilarning tabiiy idroklari muayyan vaziyatlarda yaratilgan voqeʻlikni tasavvur etish bilangina cheklanmaydi. Turli yoshda oʻquvchilarning oʻquv va ijodiy faoliyatlari yetakchi yoki ikkinchi darajali xarakterga ega boʻlishi mumkin.

Psixolingvistika nutqning shakllanishi va uni idrok etish qonuniyatlari haqidagi fan boʻlib, u nutqni shakllantirish jarayonlarini, shuningdek, uni til tizimiga muvofiq ravishda idrok etish masalasini oʻrganadi. Chunki psixik jarayonlar: sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol, nutq, diqqat kabilarning barchasi oʻzga tilni oʻrganishda, nutq shakllanishida asosiy faoliyat hisoblanadi. Shuning uchun psixolingvistika nafaqat soʻzlarni tushunish, idrok etish, ona tilini oʻrganilayotgan chet tilga ijobiy va salbiy taʼsirini oʻrganadi, balki oʻquvchining ruhiy olami, mashgʻulotlar jarayonida til oʻrganishga qiziqishi, koʻnikmalar integratsiyasidagi qiyinchilaklari bilan ham shugʻullanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Леонтьев А.А. Психолингвистики высказывания / порождение речевегоческие единицы.-М., : Эдиториал УРСС, 2003. -312 с.
2. Леонтьев А. А. Язык и речевая деятельность в общей и педагогической психологии / - М. : Изд-во Моск. психол.-соц. ин-та ; Воронеж : МОДЭК, 2001 - 444, [3] с.
3. Otayev R. Ruhiy asos talqini. Falsafiy badiia. -T.: Gʻafur Gʻulom nashriyoti, 1983. 16-b
4. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: Oʻzbekiston, 2017. - B. 157.
5. Хомский Н. Язык и мышление. Перевод с англ. Б.Ю.Городецкого. - М.: Изд. МГУ, 1972. - 34 с.